

20-Oktyabr, 2025-yil

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA RUS TILINI O‘RGATISHDA
INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI**

Sultonova Xurshidaxon Sobirxon qizi

Namangan viloyati, Kosonsoy tumani

14-sonli umumta’lim maktabining rus tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishda innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Unda chet tilini o‘rgatishda o‘quvchilar yosh xususiyatlari, qiziqishlari va o‘rganish motivatsiyasiga mos metodlardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, ko‘rgazmalilik, qo‘shiq va o‘yinlar orqali o‘qitish, multfilmlardan foydalanish hamda sezgi a’zolari orqali o‘rganishning afzalliklari tahlil qilingan. Maqola innovatsion yondashuvlar yordamida boshlang‘ich sinflarda til o‘rgatish jarayonini yanada samarali tashkil etish yo‘llarini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, rus tili, innovatsion metodlar, interfaol o‘yinlar, chet tili o‘qitish, sezgi asosida o‘rganish, motivatsiya

Аннотация: В статье рассматривается значение и эффективность использования инновационных методов в обучении русскому языку учащихся начальных классов. Автор подчеркивает необходимость выбора методик, соответствующих возрастным особенностям, интересам и мотивации детей. Особое внимание уделено применению наглядных пособий, песен, игровых технологий, мультфильмов и методов обучения с использованием органов чувств. Материал раскрывает пути повышения эффективности преподавания иностранного языка на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: начальное образование, русский язык, инновационные методы, игровые технологии, обучение иностранным языкам, мотивация, сенсорное восприятие.

Abstract: This article explores the importance and effectiveness of using innovative methods in teaching the Russian language to primary school students. It emphasizes the need to apply age-appropriate and engaging teaching strategies that enhance learners’ motivation and comprehension. The study highlights the benefits of using visual aids, songs, games, cartoons, and sensory-based learning techniques. The article proposes innovative approaches to make foreign language teaching more effective and enjoyable in primary education.

Keywords: primary education, Russian language, innovative methods, interactive games, foreign language teaching, motivation, sensory learning

So‘nggi yillarda rus tiliga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ko‘plab yoshlar va kattalar hayotiy zarurat, ta‘lim yoki kasbiy faoliyat tufayli bu tilni o‘rganishga intilmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, rus tilini o‘qitish jarayoniga yangicha yondashuvni, ya‘ni innovatsion metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy ta‘lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki o‘quvchida mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, madaniy ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, bolalar kattalarga nisbatan chet tilini tezroq o‘zlashtiradi. Buning sababi bolalarda taqlid qilish qobiliyatining yuqoriligi, eslab qolish tezligi va o‘rganishga bo‘lgan tabiiy qiziqishning kuchliligidir. Yapon olimi Masaru Ibuka o‘zining mashhur “Uchdan keyin juda kech” asarida bolalar miyasi cheksiz imkoniyatlarga ega ekanini ta‘kidlab, erta yoshda til o‘rganishning ahamiyatini ilmiy asoslab beradi. Shunga qaramay, 6–7 yoshli bolalar tilni o‘rganishda ma‘lumotning mazmunini emas, shaklini yodlaydilar. Ular so‘z va iboralarni mantiqan tushunmasdan, takrorlash va eslab qolish orqali o‘zlashtiradilar. Shu bois boshlang‘ich sinflarda rus tilini o‘qitishda grammatikani chuqur tahlil qilishdan ko‘ra, o‘quvchini qiziqtiruvchi, esda qolarli va ko‘rgazmali usullardan foydalanish samaraliroq natija beradi.

Bugungi kunda o‘qituvchidan ijodkorlik, yangi texnologiyalarni dars jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish, har bir o‘quvchining individual qobiliyatini inobatga olish talab etiladi. Innovatsion metodlar bu o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qo‘llab-quvvatlaydigan, ularni faol muloqotga va amaliy o‘rganishga jalb etadigan vositalardir. Ular orqali o‘qituvchi o‘quvchini dars jarayonining markaziga qo‘yadi va o‘rganish faoliyatini tabiiy, qiziqarli jarayonga aylantiradi. Boshlang‘ich sinfda rus tilini o‘rgatishda bunday metodlar o‘quvchilarda so‘z boyligini kengaytirish, to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish, eshitish va ko‘rish xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, multimedia vositalari, interfaol o‘yinlar, rol o‘ynash mashqlari va sezgi asosida o‘qitish usullari o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi hamda o‘quv jarayonini hayotiy tajriba bilan bog‘laydi. Shunday qilib, bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda rus tilini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, muloqot madaniyatining shakllanishiga va ijodiy tafakkurning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Innovatsion metodlar deganda, o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiruvchi, ularni mustaqil izlanishga, muloqotga va ijodkorlikka undovchi pedagogik texnologiyalar tushuniladi. Bunday metodlar nafaqat bilimni oson o‘zlashtirishga, balki til o‘rganish jarayonini qiziqarli, jonli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinfda rus tilini o‘qitishda interfaol o‘yinlar, rol o‘ynash mashqlari, ko‘rgazmali vositalar, axborot texnologiyalari hamda multimedia resurslari muhim o‘rin tutadi. Masalan, “Kim tez?” yoki “Topshiriqni top!” kabi o‘yinlar orqali yangi so‘zlarni o‘rganish, ularni to‘g‘ri talaffuz qilish va eslab qolish samarali kechadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, xususan, interaktiv doskalar, mobil ilovalar, onlayn platformalar (Quizlet, Kahoot, Wordwall) o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida dars jarayoniga jalb etadi. Bu esa ularning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, o‘yinli ta‘lim va

ko‘rgazmalilik prinsiplariga asoslangan darslar bolalarda eshitish, ko‘rish va harakat xotirasini birgalikda faollashtiradi. Bu esa tilni nafaqat yod olish, balki tushunib qo‘llash imkonini yaratadi. Innovatsion metodlarning yana bir muhim jihati sezgi asosida o‘qitish. Bu yondashuvda bola tilni mantiqiy emas, balki his qilish orqali o‘rganadi. Masalan, ranglar, shakllar yoki predmetlar bilan bog‘liq mashqlar, audio-vizual materiallar yordamida o‘quvchilar so‘zlarni tabiiy ravishda o‘zlashtiradi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinfda rus tilini o‘qitishda integrativ yondashuv (tilni boshqa fanlar musiqa, rasm, texnologiya bilan bog‘lash) o‘quvchilarning qiziqishini yanada kuchaytiradi. Masalan, “Ranglar olami” mavzusini musiqa yoki rasm darsi bilan bog‘lab o‘tish, yangi so‘zlarni san‘at orqali mustahkamlash imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus yoki ingliz tilini samarali o‘rgatishda quyidagi innovatsion yondashuvlar ayniqsa foydalidir:

1. Ko‘rgazmalilik tamoyili – bolalar eshitganidan ko‘ra, ko‘rgan narsasini yaxshiroq eslab qoladilar. Shu bois yangi so‘zlar rasmlar, plakatlar, real buyumlar orqali o‘rgatiladi. Masalan, doska, ruchka, kitob, stol kabi predmetlar ustiga ularning ruscha nomlari yozib qo‘yilishi o‘quvchining xotirasini mustahkamlaydi.

2. Musiqa va ritm orqali o‘rganish – yangi so‘zlar va iboralarni qo‘shiq yoki she‘r shaklida kuylash bolaning nutqini rivojlantirib, o‘rganish jarayonini zavqli qiladi.

3. Aralash texnikalar – o‘yin, rasm, qo‘shiq, harakat va pantomima elementlarini birlashtirish o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi hamda darsni jonlantiradi.

4. Multfilmlar yordamida o‘rganish – bolalar rus tilidagi multfilmlarni tomosha qilganda, harakatlar orqali so‘z ma‘nosini anglashga intiladilar. Bu usul vizual va emotsional xotirani birgalikda ishga soladi.

5. Didaktik o‘yinlar– “Topishmoq top”, “Kim tezroq topadi?”, “Pantomima” kabi o‘yinlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi, ularni faol muloqotga chorlaydi.

6. Sezgi a‘zolari orqali o‘rganish – predmetlarni ushlab ko‘rish, tatib ko‘rish, hidlash orqali o‘rganilgan so‘zlar uzoq muddat xotirada saqlanadi. Masalan, bola olmani tatib ko‘rib, uning rangi, hidi va ta‘mini tasavvur etadi, shu paytda ruscha nomini eslab qoladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatish jarayonida darsni majburiyat sifatida emas, balki o‘yin, musiqiy faoliyat va interfaol mashg‘ulotlar orqali tashkil etish eng samarali yondashuvlardan biridir. Chunki o‘yinli va ko‘rgazmali metodlar bolalarning tabiiy qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlaydi, ularni faol ishtirokchi sifatida o‘quv jarayoniga jalb etadi. Bunday sharoitda o‘quvchi bilimni ongli, ijobiy hissiyotlar bilan qabul qiladi, bu esa o‘rganilgan materialning uzoq muddatli eslab qolinishini ta‘minlaydi. Innovatsion metodlardan foydalanish boshlang‘ich ta‘limda rus tilini o‘qitish samaradorligini oshiribgina qolmay, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, axborotni tahlil qilish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Shu sababli o‘qituvchi dars jarayonida an‘anaviy yondashuvdan chekinib, o‘quvchini o‘rganish jarayonining markaziga qo‘yishi, ya‘ni faol subyekt sifatida rivojlantirishi lozim. Zamonaviy ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, keng dunyoqarashli va madaniyatlararo muloqotga qodir shaxsni

20-Oktyabr, 2025-yil

tarbiyalashdan iboratdir. Bu maqsadga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirib, ularni o‘quv jarayonida samarali qo‘llashni o‘rganishlari zarur. Shuningdek, innovatsion yondashuvni qo‘llash jarayoni nafaqat texnik vositalardan foydalanish, balki o‘qituvchining o‘z fikrlash tarzini yangilashi, darsga ijodkorona yondashishi, o‘quvchining qiziqish doirasini to‘g‘ri yo‘naltira bilishidan ham iboratdir. O‘qituvchining har bir yangi metodni amaliyotga to‘g‘ri integratsiya qilishi o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi, o‘z fikrini ifodalash madaniyatini shakllantiradi hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda rus tilini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish bu ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta‘minlash va ularni zamonaviy jamiyat talablari darajasida tayyorlashning eng samarali yo‘llaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гальскова, Н.Д., Гез, Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – Москва: Академия, 2019.
2. Z.A. Kurbanova. Chet tillarni o‘qitishda innovatsion metodlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
3. N. Sh. Hasanboyeva. Boshlang‘ich ta‘limda integrativ yondashuv asosida ta‘limni tashkil etish. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
4. E. G‘anieva, R. Rasulova. Interfaol metodlar yordamida chet tilini o‘qitish samaradorligini oshirish. // “Ta‘lim va innovatsiyalar” ilmiy jurnali, №4, 2022